

HUSNIXATGA O'RGATISHNING METODIK SHARTLARI

Mahmudova Charos Baxtiyor qizi

ShahDPI Pedagogika fakulteti

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 4-kurs

talabasi E-mail : charosmahmudova8@gmail.com

Annotatsiya : *Ushbu maqolada og'zaki va yozma nutqning afzalliklari, yozuvning kelib chiqish tarixi, husnixatga o'rgatishning metodik shartlari haqida ma'lumot berilgan. Husnixatga o'rgatishning metod va usullar mazmun va mohiyati yoritib berilgan. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga husnixat darsining ahamiyati haqida fikrlar yoritilgan.*

Kalit so'zlar : *Husnixat ,yozuv tarixi , xattotlik , yozuv usullari , yozuvning talablari .*

Аннотация : *В статье дана информация о преимуществах устной и письменной речи , истории возникновения письменности, методических условиях обучения каллиграфии . Представлены методы и приемы обучения каллиграфии .*

Ключевые слова : *каллиграфия , история письма, каллиграфия, приемы письма, требования к письму.*

Abstract: *this article provides information about the advantages of oral and written speech, the history of the origin of writing, and the methodological conditions for teaching calligraphy. Methods and techniques for teaching calligraphy are presented.*

Keywords: *calligraphy, history of writing, calligraphy, writing methods, writing requirements.*

Boshlang'ich ta'limning savod o'rgatish davrida, asosan, o'quvchilarga yozuv darslari olib boriladi, lekin yozuv darslarining o'zida husnixat malakalari ham shakllantirib boriladi. Husnixat(chiroyli yozuv)-chiroyli yozish san'ati. Yozuv va husnixat darslarida chiroyli yozuv malakalarini shakllantirish, o'quvchilarning yozuv nuqsonlarini bartaraf etish juda katta ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega. Inson o'z fikrini boshqa kishilarga og'zaki va yozma shaklda yetkazishi mumkin. Nutqning bu shaklining o'xshash va farqlash tomonlari mavjud bo'lib ular o'z o'rnida afzalliklarga ega. Og'zaki nutq tovush chiqarib aytiladi va eshitilish uchun mo'ljallanadi U kishilarning nutq jarayoni vaqtidagi aloqa vositasi bo'lib xizmat qiladi. Yozma nutq esa tosh, yog'och, teri, metall, qog'oz kabilarga ko'rish

TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR

VI son, May

asosida idrok qilinadigan doimiy belgilar orqali yozib qo'yiladi. Yozuv kishilarning o'zaro fikr almashishi va bilimlarni egallashning qudratli vositasi hisoblanadi. Yozma nutq avlodlarni bir-biriga bog'laydi, uzoq saqlanadi. Yozuv tufayli kishi fikri, insoniyat qo'lga kiritgan bilimlar avloddan-avlodga yetib boradi, abadiy yashaydi.

Yozuv-biror tilda qabul qilingan maxsus belgilar yig'indisi. Yozuv tushunchasi tilning tovush elementlari (so'z, bo'g'in, tovush)ni ifodalovchi belgilarnigina emas, balki piktografiya, ideografiya shakllarini ham o'z ichiga oladi. Urug'chilik tizimi davrida dastlab surat yozuvi paydo bo'ldi. Yozuv zamon va masofa jihatidan og'zaki nutqqa nisbatan ustunlikka ega. Yozuvning eng qadimgi shakli piktografiyadir. Bu yozuv asosan Amerika indeeslarida aloqa quroli sifatida qo'llanilgan. Nutqning og'zaki va yozma shakli qushning ikki qanotiga o'xshaydi. Chunki o'quvchi har qanday bilimni o'zlashtirish jarayonida faqat og'zaki nutqqagina tayanmaydi. Balki, axborotlar, fikrlar, g'oyalar, mashqlar, misol va masalalar, qoida va ta'riflar yozma nutq orqali ifoda qilinadi. O'quvchilarni yozuvga o'rgatish orqali, ayniqsa, chiroyli husnixatga o'rgatish orqali go'zallik va nafosat tarbiyasi ham shakllantiradi. Husnixatga o'rgatishdan asosiy maqsad kichik yoshdagi o'quvchilarga yozishdek murakkab jarayonni o'rgatish orqali, ularning chiroyli yozuv malakalarini rivojlantirishdan iboratdir. 1-4-sinf o'quvchilarni chiroyli yozishga o'rgatish uchun o'qituvchining o'zi husnixat bilan yozishi, shu bilan birga o'quvchilarning chiroyli yozishga o'rgata olishi kerak. Husnixat va uni o'rgatish metodikasi fani oldiga quyidagi vazifalarni qo'yadi:

Birinchidan, husnixat bilan yozish o'quvchilardan mehnat madaniyatini tarbiyalaydi. Topshiriqlarni toza, aniq va madaniyat bilan bajarish ko'nikmasini hosil qiladi. Ikkinchidan, dastxatiga pala-partish va bee'tibor munosabatda bo'lish o'quvchilarning imloviy savodsizligini keltirib chiqaradi. Natijada o'quvchilar qiladigan ishlariga o'ylab o'tirmay bajaraveradilar, o'z xato va kamchiliklarini ham o'ylab ko'rmaydigan bo'lib qoladilar. Uchinchidan, husnixat bilan to'g'ri yozish ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lib, turli rasmiy hujjatlarni yuritishda kishilar unga ehtiyoj sezadi. Husnixat bilan yozilmagan to'ldirilmagan hujjatlarni o'qishga kitobxonning ko'p vaqt sarflashiga to'g'ri keladi. Vaholanki, maktabda har kuni o'qituvchi 30 talab o'quvchilar daftarini tekshiradi. Agar o'qib bo'lmaydigan qilib yozgan bo'lsa o'qituvchining ham unga ko'p vaqti sarf bo'ladi. Aniq va ravon qilib yozgan dastxati o'qituvchining ishini yengillashtiradi, keyingi ta'lim maqsadlarini amalga oshirishlari uchun imkoniyat yaratadi. Yana aytishimiz mumkinki, yozuv orqali insonlarni xarakterlarini ham bilishimiz mumkin. Tez va tushunarsiz yozadigan insonlar, odatda, jahldor va injiq xarakterli bo'ladilar. Asta va chiroyli

yozuv egalari hayotda ham sokin va og'ir bosiq xarakterli bo'lishadi. Husnixat bilan yozish o'quvchilarni sabr toqatli qilib tarbiyalaydi. Bundan tashqari husnixat bilan shug'ullanuvchi shaxslarda estetik did baland bo'ladi. Har bir ishga jiddiy va mukammal yondashishadi. Husnixatga o'rgatishning bir qancha metodik shartlari mavjud. Masalan, o'qituvchining namunaviy yozuvi-bolalarda to'g'ri yozuvni shakllantirishning asosiy omili hisoblanadi. Yozishga o'rgatish ko'pincha taqlid qilish orqali amalga oshadi. O'qituvchining birinchi o'quv yilida sinf taxtasi yoki o'quvchi daftariga yozganlari asl nusxa sifatida ko'riladi, chunki o'quvchilar undan o'z daftariga ko'chirib oladilar. Shuning uchun o'qituvchining husnixati to'g'ri va chiroyli bo'lishi lozim. Sinf taxtasiga yozilgan yozuvi esa o'quvchining daftaridagi harflarning joylashishiga mos holda bo'lishi kerak. Amaliyotning ko'rsatishicha, agar o'qituvchi qatorning oxirigacha yozmasa, bolalar ham undan namuna olib qatorning oxirigacha yozishmaydi, qog'ozni bekorga sarf etishadi va so'zlarni keyingi qatorga to'g'ri ko'chirish yo'llarini o'rgana olmaydilar. O'qituvchi o'z yozuvini yanada chiroyli va mukammal bo'lishi uchun uzluksiz shug'ullanib borishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yishi shart. O'qituvchi to'g'ri husnixatda yozishni o'rganib olishi zarur. O'qituvchi faqat nazariy bilimga emas, balki amaliy ma'lumotlarga ham ega bo'lishi kerak. Shu bilan birga yozish jarayonida qo'l va barmoqlarni, boshni harakatlantirib turish kerak. Aks holda qo'lda tomir tortishishi, bosh og'rish, ko'z charchashi kabi holatlar yuzaga keladi. Bunday holda o'quvchilar charchab, yozuvga bo'lgan qiziqish so'nib boradi. Shuning uchun har bir o'qituvchi darsini integratsiya shaklda olib borishi kerakki, ham vaqtdan yutadi, ham bolalar qiziqishi ortadi. Husnixatda harflarning yozilishi sodda va to'g'ri bo'lishi kerak. Pedagogik amaliyotda, boshlang'ich 1-2-sinflarda o'rganiladigan shriftlarning namunasi ishlab chiqilgan. 3-va 4-sinflar amaliyotida qo'llanadigan tez yozuv malakasining boshlang'ich sinflardagi yozuvdan ancha farq qiladi. Husnixatga o'tgatcha izchil va ketma-ketlik xarakteriga ega bo'lishi lozim. O'rgatish jarayonida o'qituvchining dastur materialini, o'quvchini soddaroq shakliy ko'rinishga ega bo'lgan harflardan, murakkabroq ko'rinishga ega harflarga o'tkazishga va yirik hamda sekin yozuvdan, mayda va tez yozuvga o'tkazishda e'tibor beriladi. O'quvchilarni chiroyli yozishga o'rgatishda, ularda husnixat malakalarini hosil qilishda yozuv qurollari va materiallarning sifati katta rol o'ynaydi. Yozuv qurollari va materiallari quyidagilar hisoblanadi:

1. Xattaxta
2. „To'g'ri o'tir“ ko'rgazmali quroli
3. Alifboning yozma shakli
4. Harflar alohida yozilgan ko'rgazma

5.Husnixat daftari

6.Rangli bo'rlar

7.Ruchka

8.Yozuv daftari

O'qituvchi o'quvchining yozuv qurollarini har kuni nazorat qilib borishi lozim.Bu esa o'quvchilarda mas'uliyatlik hissigacha o'rgatadi.O'quvchilar , asosan,sharikli (siyoh rang) ruchkadan foydalanishadi.Boshqa turdagi jimjimador ruchkalar o'quvchini diqqatini, e'tiborini tortadi, qo'li tez toliqadi.Sharikli ruchka yozish uchun qulay,ingichka ,yengil,barmoqlar orasida tutishga mos.Ruchka barmoq orasida tutilganda ,ruchka uchi bilan barmoq oralig'i 1,5-2cm ga teng bo'lishi shart.Yozish jarayonida daftar 65°C qiyalikda bo'lishi kerak.Dastur talabi bo'yicha 1-sinf o'quvchilari uchun yozuv yo'li 4mm,bosh harflar uchun 8mm bo'lgan qiya chiziqlari siyrak bo'lgan 2chiziqli daftar tavsiya etiladi.1-sinf o'quvchilari uchun o'quv qurollari Prezidentimiz tomonidan beriladi .Ularni asrab-avaylash kerakligi,oqilona foydalanish zarurligi haqida ma'lumot berish ustozlarning vazifasidir . O'quvchilar yozuv jarayonida,avvalo,harf elementlarini yoza boshlaydilar.Husnixatni o'rgatishning bir qancha metod va usullari bor.Bular : Chiziqli usul, namunaga qarab yozish usuli,nusxa ko'chirish usuli,genetik usul, takrorlash usuli,namunaga qarab ko'chirish usuli, tasavvur orqali yozish usuli, ritmik usul,harf shakllarini tahlil qilish usuli,yozuv malakasini ongli o'zlashtirish usuli,qo'l harakatini mashq qildirish usuli.Bu kabi usullarning barchasi husnixatni yaxshilanishi uchun xizmat qiladi.,Yoshlikda olingan bilim,toshga o'yilgan naqsh kabidir"deb bejizga aytilmagan.Yoshlikdanoq yozuvimiz chiroyli bo'lsa,umrbod chiroyli yozuv egasi bo'lamiz.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak,husnixat ham bir san'at.San'atni egallash uchun o'z ustida ishlash,sabr-toqatli bo'lish, uzluksiz mashq qilish va chin dildan xohlash talab etiladi.O'quvchi chiroyli yozishga qiziqmas ekan,uni hech qachon husnixatga o'rgatib bo'lmaydi.Shuning uchun jajji o'quvchilar ning maktabga ilk qadam qo'ygan vaqtlaridan boshlab,bilimga, ta'lim -tarbiyaga , maktabga qiziqishini oshirishimiz lozim.O'quvchilarning ilmi bo'lishi nafaqat o'qituvchilarga, balki otionalarga ham bog'liq.Ular hamkorlikda ishlashsa,o'ylaymanki,savodli o'quvchilar yetishib chiqishadi.O'quvchilarga yozuvni soddadan murakkabga tomon o'rgatish maqsadga muvofiqdir.Yozuv jarayonida turli xil ko'rgazmali qurollardan foydalanish darsni samarali va natijali qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.X.G'ulomova ,Sh.Yo'ldosheva , G.Mamatova, H.Boqiyeva, A.Sobirova „Husnixat va uni o'qitish metodikasi "o'quv qo'llanma „ Iqtisod -moliya"2021
- 2.Abdullayev Q, Nazarov Q, Yo'ldosheva Sh, „Savod o'rgatish"Toshkent,, O'qituvchi "1996
- 3.Safarova R, Nazarov Q, Yo'ldosheva Sh "Alifbe"Toshkent Sharq 2005
- 4.G'afforova R, Nazarov Q, Yo'ldosheva Sh „1-sinf savod darslari"Toshkent 1997
- 5.G'ulomov M.,, Boshlang'ich sinf o'quvchilarini husnixatga o'rgatish" Toshkent,, O'qituvchi "1970
- 6.G'ulomov M. ,, Chiroyli yozuv malakasini shakllantirish " Toshkent ,, O'qituvchi "1976
- 7.G'ulomov M. "Husnixat daftari"1-sinf uchun Toshkent 1998
- 8.Ikromjonovna, J.S.(2023) Boshlang'ich sinflarga ta'lim berish jarayonida zamonaviy metod va vositalarning ahamiyati. Qo'qon universiteti xabarnomasi